

## KORRUPSIYANING SOLIQ ISLOHOTLARI SAMARASIGA SALBIY TA'SIRLARINI BAHOLASH

*Bank-moliya akademiyasi magistranti*  
*Turaev Boburshoh Shuxratjon og'li*  
[To'raev b@gmail.com](mailto:To'raev_b@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada korrupsiyaning soliq islohotlari samarasiga salbiy ta'sirlari, ularni baholash, korrupsiyaga qarshi kurashishda rivojlangan davlatlarning tajribalari va ularni mamlakatimizda qo'llash jarayonlari qilish haqida so'z yuritiladi. Shuningda mazkur maqolada korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurashish tushunchasi, korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun rivojlangan xorijiy mamlakatlarda javobgarlik masalalari va korrupsiyani oldini olish bo'yicha ularning tajribasi tahlil qilingan. Bundan tashqari ushbu maqola orqali yurtimizda soliq tizimidagi korrupsiyaga qarshi choralar, uning natijalari va tahlili haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

**Kalit so'zlar:** korrupsiya, poraxo'rlik, korrupsiyaga qarshi islohotlar, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish, soliq, soliq islohotlari, soliq tizimi, korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat soliq qo'mitasi, korrupsiyaga qarshi soliq islohotlari, korrupsiyaga qarshi siyosat, davlat boshqaruvi, davlat xizmati.

**Annotation:** this article will talk about the negative effects of corruption on the effect of tax reform, their assessment, the experiences of developed countries in the fight against corruption and the processes of their application in our country. At the same time, this article analyzes the concept of corruption, anti-corruption, issues of responsibility for corruption crimes in developed foreign countries and their experience in preventing corruption. In addition, through this article you will have information about the measures against corruption in the tax system in our country, its results and analysis.

**Keywords:** corruption, bribery, anti-corruption reform, anti-corruption System Improvement, Tax, tax reform, tax system, anti-corruption, state tax committee, anti-corruption tax reform, anti-corruption Policy, Public Administration, Public Service.

### KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi (DSQ) byudjetga soliq va boshqa tushumlarning qariyb 75 foizini ta'minlaydi, 15 milliondan ortiq soliq to'lovchilarni nazorat qiladi va ularga xizmat ko'rsatadi, 11 mingdan ortiq xodim ishlaydi. Davlat soliq qo'mitasi yoki umuman soliq tizimida ko'plab korrupsion holatlar vujudga kelmoqda edi. Soliq sohasidagi korrupsion holatlar davlat rahbari nazaridan chetda qolmay, ushbu masalaga jiddiy e'tibor qaratildi. Soliq tizimidagi korrupsiya xavfi va shu sohada tub islohotlar zarurligini ta'kidladi. Jamoatchilik fikrini

o'rganish va korrupsiyaga oid jinoyatlar bo'yicha statistik ma'lumotlar bu zaruratni tasdiqlaydi<sup>1</sup>.

Keyingi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim tashkiliyhuquqiy islohotlar amalga oshirildi. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga, jamiyatda korrupsiyaga murossasiz munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan tizimli choralar ko'rildi.

Islohotlarni amalga oshirish doirasida fuqarolarning huquq va manfaatlari himoya qilinishini, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligini, jamoat va parlament nazoratini ta'minlash mexanizmlari takomillashtirildi, shuningdek, huquqni muhofaza qilish va sud organlari faoliyatining huquqiy asoslari isloh qilindi.

Shu bilan birga, iqtisodiyotni yanada o'stirish, xalq farovonligini oshirish, mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash borasidagi strategik vazifalarni hal etish korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash hamda korrupsiya ko'rinishlarining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish bo'yicha yangi tizimli choralar ko'rilishini taqozo qilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini oshirish, eng yuqori darajadagi qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, mamlakatning xalqaro maydondagi ijobiy obro'-e'tiborini oshirish maqsadida, shuningdek, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq ishlar amalga oshirildi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlar korrupsiyaga qarshi kurashish Davlat dasturining har bir bandi bo'yicha maqsadlarga erishishda samaradorlik indikatorlarini ishlab chiqishi va O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi bilan kelishib kerakli chora-tadbirlarni amalga oshirish asosiy maqsad qilindi<sup>2</sup>.

Xususan, Davlat soliq qo'mitasi o'z faoliyatida joylarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ishlarning holatini kompleks o'rganish, joylarda korrupsiya ko'rinishlari namoyon bo'lishiga olib keladigan tizimli muammolar va korrupsiyaning holati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari bo'yicha qo'mitalariga ushbu sohadagi faoliyatni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritgan holda muntazam ravishda axborot berib borish kabi vazifalar yuklatildi.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Bugungi kunda korrupsiya muammosiga jahonning deyarli har bir mamlakatida duch kelish mumkin. Korrupsiya so'nggi yillarda xalqaro miqyosda transmilliy jinoyat sifatida tomonidan keng muhokama qilinayotgan mavzulardan biridir.

<sup>1</sup> Антикоррупционные реформы в УЗБЕКИСТАНЕ. <https://www.oecd.org/corruption/acn/OECD-ACNUzbekistan>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PF-6257-sonli Farmoni tahririda – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.07.2021-y., 06/21/6257/0645-son

Ta'kidlash lozimki, korrupsiya keltiradigan zarar barcha davlatlar uchun teng sanalib, mazkur illat davlatning turli sohalariga, xususan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlarga hamda mamlakatning xalqaro maydondagi imidji va investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "Jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi".

Qobilov Sh. tadqiqotlarida korrupsiyaga quyidagicha ta'rif berilgan: Korrupsiya – mansabdor shaxsning o'z mansabi bo'yicha berilgan huquqlarni shaxsiy boyish maqsadlarida bevosita suiiste'mol qilishidan iborat amaliyot. Mansabdor shaxslarni sotib olish, ularning poraga sotilishi ham korrupsiya deyiladi. Korrupsiya davlat apparati va parlament faoliyatida ayniqsa, avj oladi. Saylanadigan lavozimlarga nomzodlar saylov kampaniyasini o'tkazish harajatlarini ko'tarish korrupsiyaning ko'rinishlaridan biridir (saylangan kishi turli imtiyozlar, yordam, xizmatlar ko'rsatib "o'z qarzini" qaytaradi)<sup>3</sup>.

Bardhan P. o'z izlanishlarida korrupsiya lobbizm (monopoliyalarning qonunchilik organlari va amaldorlarga tazyiq o'tkazish bilan shug'ullanadigan muassasa va agentlari tizimi) bilan bog'langanligini keltirib o'tgan<sup>4</sup>.

O'zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurash va "korrupsiyasiz soha"ni takomillashtirish bilan bog'liq dolzarb muammolarning muhim konseptual g'oyalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning qator ma'ruza hamda asarlarida ("Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". I jild; "Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz"; "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi"; "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz"; BMT Bosh Assambleyasi 72, 75-sessiyalarida so'zlagan nutqlari; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomalari), shuningdek, Respublikamiz olimlaridan Q.R.Abdurasulova ("Jinoyatning maxsus sub'ekti"), R.A.Zufarov ("Poraxo'rlik uchun jinoiy javobgarlik"), I.M.Mirzaraimov ("Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni oshkoralashtirishga qarshi kurashning huquqiy choralari"), Sh.R. Qobilov ("Korrupsiya: sabablari, shart-sharoitlari,

<sup>3</sup> Bogdanov I.Ya., Kalinin A.P. Korrupsiya v Rossii: sotsialno- konomicheskiye aspekti. M., 2001; Houston D.A. Can Corruption Ever Improve an Economy // Cato Journal. 2007. Vol. 27. № 3

<sup>4</sup> Богданов И.Я., Калинин А.П. Коррупция в России: социальноэкономические аспекты. М., 2001; Houston D.A. Can Corruption Ever Improve an Economy // Cato Journal. 2007. Vol. 27. № 3

oqibatlari va oldini olish yo‘llari”) larning asarlari, monografiyalari, risolalari, ilmiyuslubiy maqolalarida o‘rganilgan<sup>5</sup>.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Mazkur maqola tahliliy tadqiqot sifatida qonun hujjatlari va ilmiy-nazariy manbalar tahlilini o‘z ichiga oladi. Ushbu maqolada sohaga oid ilmiy tushunchalar, nazariyotchi olimlarning qarashlari, korrupsiyaning soliq islohotlari samarasiga salbiy ta’sirlarini baholashda va korrupsiyaga qarshi kurashishda rivojlangan davlatlarning tajribalari tahlil qilingan. Maqola mavzuga oid tushunchalarni o‘rganishdan boshlangan hamda korrupsiyaga qarshi kurashda rivojlangan davlatlarning tajribalari tahlil qilinib, ularning tajribasini bizning qonunchiligimizga joriy qilishga oid xulosalar bilan yakunlangan.

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda tizimli hamda qiyosiy-huquqiy tahlil qilish, shuningdek, induksiya, deduksiya, analiz, sintez, tarixiy-huquqiy va statistik ma’lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanilgan. O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan jinoyatchilikka qarshi kurash, sud-huquq islohotlari, jinoyat qonunchiligini takomillashtirishga oid tahlillar tadqiqot ishining metodologik asosini tashkil etadi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

O‘zbekistonda keng ko‘lamli soliq islohotlari boshlandi. Shu bilan birga, korrupsiya va soliq tavakkalchiligiga qarshi tizimli kurashish uchun soliq xizmatining o‘rta va uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan strategik boshqaruvini, maqsadlar va ularga erishish yo‘llarini, samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) asosida faoliyatni baholash tizimini joriy etish mas’ul shaxslar va resurslarni taqsimlash zarur edi<sup>6</sup>.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy rejalarni, xavflarni tahlil qilish asosida, ijroni samarali monitoring qilish vositalariga ega bo‘lgan holda ishlab chiqishni davom ettirish va ushbu vazifalar bilan chegaralangan maxsus o‘qitilgan xodimlarni ajratish kerak. Soliq xizmati darajasida xavflarni rejalashtirish va baholash tizimi sezilarli takomillashtirishni talab qiladi. Soliq sohasidagi korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha milliy siyosat hujjatlarida ham aks ettirildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 26-iyundagi PQ-3802-son qarorini bajarish yuzasidan, shuningdek, davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qildi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi to‘g‘risida nizomga asosan Davlat soliq qo‘mitasiga korrupsion holatlar yuzasidan quyidagi vazifalar yuklatildi:

<sup>5</sup> Nurmuxammedova, G. B. (2020). Korrupsiyaga qarshi kurashish usullari va mexanizmlarining nazariy-huquqiy tahlili. Jurisprudence, 1(1).

<sup>6</sup> Bekmurodov A.Sh., Korrupsiyaga qarshi kurashish. Darslik. Toshkent: “Akademiya”, 2022. – 344 b.

➤ davlat soliq xizmati organlari xodimlariga korporativ etikani singdirish, korrupsiya faktlariga keskin barham berish bo'yicha ta'sirchan choralarini, shu jumladan xodimlar manfaatlarining to'qnashuvini hal qilish yo'li bilan amalga oshirish, ishga rasmiyatchilik bilan yondashishga barham berish, shuningdek, xodimlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlash, o'z xizmat faoliyati samaradorligini oshirish motivatsiyasi tizimini joriy etish va ular uchun xizmatni o'tashning munosib shart-sharoitlarini yaratish.

➤ davlat soliq xizmati organlarida korrupsiya holatlarini aniqlashga, ularning oldini olishga, qarshi kurashishga va bartaraf etishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi, tashkil etadi va ularni amalga oshirishda qatnashadi;

➤ qonun hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiq Qo'mita tizimida korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish choralarini ko'rish, shuningdek, huquqni qo'llash amaliyoti va qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish yo'li bilan ularning sodir etilishiga ko'maklashuvchi sabablar va shartsharoitlarni aniqlash, tahlil qilish, bartaraf etish;

➤ O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni talablariga muvofiq Hududlararo inspeksiya faoliyati doirasida korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish choralarini ko'rish, shuningdek, huquqni qo'llash amaliyotini va qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish yo'li bilan ularning sodir etilishiga ko'maklashuvchi sabablar va shartsharoitlarni aniqlash, tahlil qilish, bartaraf etish;

➤ Korrupsiya va boshqa suiiste'molchiliklarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik va oldini olish, xodimning shaxsiy va ishchanlik fazilatlarini, uning faoliyati samaradorligini tizimli o'rganish, shuningdek, soliq organlari faoliyatining turli yo'nalishlarida bilim va tajribaga ega kadrlar zaxirasini shakllantirish maqsadida xodimlar rotatsiya qilinadi.

Davlat soliq qo'mitasi nizomiga asosan yuqoridagi vazifalar va ularni amalga oshirish mexanizmlari DSQ tominidan amalga oshiriladi. Bundan tashqari bir qator tashabbuslar, jumladan, "call-markazlar" orqali soliqqa oid masalalar bo'yicha ma'lumot va maslahatlar, tadbirkorlik sub'yektlari uchun elektron deklaratsiya xizmatlarini joriy etish, ularning soliq tizimiga bo'lgan ishonchini oshirish, shuningdek, korrupsiyaning ehtimoliy imkoniyatlarini kamaytirish ijobiy hisoblanadi va korrupsiyani keltirib chiqarish darajasini pasaytiradi.

Soliq tekshiruvlari tadbirkorlik sub'yektlari uchun noadekvat ma'muriy yuk bo'lib qolganligi va ko'pincha korrupsion xususiyatga ega bo'lganligi sababli tekshirishlarga moratoriy e'lon qilish va ularni muvofiqlashtirishni Bosh prokuraturaga o'tkazish bo'yicha vaqtincha noan'anaviy choralar ko'rildi. DSQ oldidagi vazifa korrupsiyaga

chidamli va soliq to'lovchilar va jamoatchilik tomonidan ishonchli auditorlik tekshiruvining samarali tartibini yaratishdan iborat. Buning uchun nazorat choralarning barcha turlarini, soliq organlari xodimlari va soliq to'lovchilarning burch va huquqlarini, nazorat tadbirlarini o'tkazish tartiblarini batafsil va aniq tartibga solish, shuningdek, tekshirishlar va boshqa nazorat tadbirlarini o'tkazish uchun soliq to'lovchilarni tanlash tizimini amaliyotga joriy etish zarur. Ushbu tartib-qoidalar Soliq kodeksida tartibga solinishi, va qonun osti hujjatlariga minimal havolalar berish alohida xususiyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, faqat qonun bilan belgilanishi va tartibga solinishi lozim bo'lgan soliq imtiyozlari ro'yxatini tizimlashtirish va qisqartirishni davom ettirish zarurdir.

Tadbirkorlik subyektlari vakillari, Davlat soliq qo'mitasi tomonidan taqdim etilgan statistik ma'lumotlar, shuningdek, Hisob palatasining hisoboti qo'shimcha soliqlar va sanksiyalar bo'yicha qarorlar ustidan shikoyat qilish jarayoniga ishonchsizlik holatlari mavjudligidan dalolat beradi. Iшонchli shikoyat qilish tartibining yo'qligi soliq ma'muriyatining korrupsion tarkibiy qismiga bevosita ta'sir qiladi. Shu bois soliq nizolarini hal etishning soliq to'lovchilar va aholi ishonchiga sazovor bo'lgan samarali tizimini yaratish, shu jumladan Davlat soliq qo'mitasi tuzilmasidan tashqarida mustaqil muassasa faoliyati yo'li bilan amalga oshirilishi zarur. Davlat soliq qo'mitasining soliqlarni hisoblash to'g'risidagi qarorini rad etish, tasdiqlash yoki o'zgartirish huquqiga ega bo'lgan soliq nizolarini sud tartibida hal etish maqsadga muvofiqdir.

Soliq xizmati organlarining yaxlitligini oshirish maqsadida Davlat soliq qo'mitasi rahbarlari lavozimlariga ochiq tanlov asosida tanlovni joriy etish imkoniyatlarini ko'rib chiqib, soliq xizmati ichki xavfsizlik bo'linmalarining mustaqilligi va samaradorligini oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Soliq xizmati organlariga ishga qabul qilish va boshqa lavozimlarga ko'tarishda aniq mezonlar va baholash metodologiyasi asosida shaffoflik va xolislik asosida ishga qabul qilish tizimini yanada takomillashtirish zarurdir. Shuningdek, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun moliyaviy sanksiyalar va jarimalar qo'llash orqali soliq xizmati organlarining byudjetini shakllantirish, shuningdek, undirilgan soliqlar va to'lovlar miqdoriga qarab xodimlarga ustamalar to'lash tartibini bekor qilish kabi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Korrupsiyaning ko'payishi natijasida xufyona iqtisodiyot rivojlanadi va bu soliq islohotlarini amalga oshirishga salbiy ta'sir qiladi. Ta'kidlash joizki, xufyona iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha hukumat tomonidan so'nggi 14 yil ichida bir qator islohotlar olib borilgan. Xususan, soliqlar soni 18 tadan 9 taga tushirilgan, soliq stavkalari: jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i - 22 foizdan 12 foizga, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i 35 foizdan - 15 foizga, qo'shilgan qiymat solig'i - 24 foizdan - 12 foizga pasaytirilgan.

Bundan tashqari, biznesni raqamlashtirish indeksi bo'yicha 190 davlat ichida 112-o'rindan – 43-o'ringa, Xalqaro korrupsiya indeksiga ko'ra, 180 ta davlat ichida 172-o'rindan – 126-o'ringa, biznesni yuritish indeksi bo'yicha 190 ta davlat ichida 147-o'rindan – 69-o'ringa ko'tarilgan. Biroq, mazkur ko'rsatkichlarga qaramasdan xufiyona iqtisodiyot ulushi tartibsiz ravishda 38 foizdan 62 foizga o'sgan (1- jadval)<sup>7</sup>.

**1-jadval**

**Xufiyona iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar va ularning soliqqa ta'sirining tahlili<sup>8</sup>**

T/R	Islohot qilingan sohalar	2009	2012	2017	2022
1	Soliqlar soni	18	15	13	9
Soliq stavkalari:					
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	22%	22%	21%	12%
3	Foyda solig'i	35%	30%	20%	15%
4	QQS	24%	20%	20%	12%
5	Biznesni raqamlashtirish Jahon bankining "GovTech Maturity Index" (190ta davlat ichida - o'rin)	112	-	80	43
6	Korrupsiya darajasi "Transparency International" (180 ta davlat ichida - o'rin)	172	170	157	126
7	Biznesni yuritishdagi byurokratik to'siqlar "Doing business" (190ta davlat ichida - o'rin)	-	174	76	69
8	YAIMga nisbatan xufiyona iqtisodiyot ulushi	-	38%	50%	62%

Bundan tashqari, Xalqaro valyuta jamg'armasining 2021 yilgi hisobotida, rivojlanayotgan mamlakatlarda YaIMga nisbatan xufiyona iqtisodiyot ulushi 30- 39 foizni tashkil etishi belgilangan. Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra O'zbekiston Respublikasida 2021 yilda xufiyona iqtisodiyot ulushi 58,5 foizni tashkil etgan.

Soliq ma'muriyatchiligining ilg'or tajribasida soliq xizmatining samarali faoliyati (soliq yig'ish darajasi) va soliq organlaridagi korrupsiya darajasi o'rtasida teskari aloqa deb ataladigan narsa mavjud. Chunki xalq ishonch bildirgan soliq organigina soliqlarni samarali undira oladi.

Buning uchun xizmat zamonaviy soliq ma'muri xususiyatlariga ega bo'lishi kerak, xususan:

- uzoq muddatli faoliyatni rejalashtira olish;

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rasmiy [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz) saytidagi ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

<sup>8</sup> Nabiyev F.N., O'zbekiston respublikasining xufiyona iqtisodiyot ulushini qisqartirishda raqamli texnologiyalarning o'рни, Soliq va hayot" elektron ilmiy ommabop jurnali, 2023-yil 3-son

- soliq risklarini tizimli ravishda boshqarish;
- xavflarni tahlil qilish asosida soliq to'lovchilar ustidan yetarlicha nazoratni amalga oshirish;
- mijozga yo'naltirilgan bo'lish;
- asosan elektron shaklda sifatli xizmatlar ko'rsatish;
- soliqlarni to'lash tartibi to'g'risida ma'lumot berish;
- malakali kadrlarga ega bo'lish.

2019-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasining soliq tizimini isloh qilish strategiyasi loyihasi soliq siyosatini sifat jihatidan o'zgartirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni yaxshilash va soliq to'lovchilarning o'z-o'zini anglash darajasini oshirish bo'yicha jiddiy maqsadlar va bir qator zarur chora-tadbirlarni nazarda tutadi. Bu maqsadlar orasida:

- soliq majburiyatlarini ixtiyoriy bajarish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- soliqlar va preferensiyalar ma'muriyatchiligi samaradorligini monitoring qilishning inklyuziv tizimini yaratish;
- soliq tizimidagi xarajatlarini optimallashtirish;
- investitsiya muhitini yaxshilash;
- soliq tizimidagi jarayonlarini avtomatlashtirish;
- insonresurslari masalalari bilan bog'liq strategiya va amaliyotlarni takomillashtirish va boshqalar.

Islohotlarning bunday hajmi, shuningdek, ularning rejalashtirilgan tezligi ham soliq yig'ish, ham korrupsiya komponentini kamaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin<sup>9</sup>.

## XULOSA

Xulosa qilib shuni alohida ta'kidlashimiz joizki, tadbirkorlik subyektlari vakillari, Davlat soliq qo'mitasi tomonidan taqdim etilgan statistik ma'lumotlar, shuningdek, Hisob palatasining hisoboti qo'shimcha soliqlar va sanksiyalar bo'yicha qarorlar ustidan shikoyat qilish jarayoniga ishonchsizlik holatlari mavjudligidan dalolat beradi. Ishonchli shikoyat qilish tartibining yo'qligi soliq ma'muriyatining korrupsion tarkibiy qismiga bevosita ta'sir qiladi. Shu bois soliq nizolarini hal etishning soliq to'lovchilar va aholi ishonchiga sazovor bo'lgan samarali tizimini yaratish, shu jumladan Davlat soliq qo'mitasi tuzilmasidan tashqarida mustaqil muassasa faoliyati yo'li bilan amalga oshirilishi zarur. Davlat soliq qo'mitasining soliqlarni hisoblash to'g'risidagi qarorini rad etish, tasdiqlash yoki o'zgartirish huquqiga ega bo'lgan soliq nizolarini sud tartibida hal etish maqsadga muvofiqdir.

<sup>9</sup> Bektemirov A., Taniyev A., Soliq va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. Samarqand.: "STEP-SEL" MChJ nashriyoti. 2023-256 bet.

Soliq xizmati organlarining yaxlitligini oshirish maqsadida Davlat soliq qo‘mitasi rahbarlari lavozimlariga ochiq tanlov asosida tanlovni joriy etish imkoniyatlarini ko‘rib chiqib, soliq xizmati ichki xavfsizlik bo‘linmalarining mustaqilligi va samaradorligini oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Soliq xizmati organlariga ishga qabul qilish va boshqa lavozimlarga ko‘tarishda aniq mezonlar va baholash metodologiyasi asosida shaffoflik va xolislik asosida ishga qabul qilish tizimini yanada takomillashtirish zarurdir. Shuningdek, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun moliyaviy sanksiyalar va jarimalar qo‘llash orqali soliq xizmati organlarining byudjetini shakllantirish, shuningdek, undirilgan soliqlar va to‘lovlar miqdoriga qarab xodimlarga ustamalar to‘lash tartibini bekor qilish kabi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Korrupsiyaning nafaqat oqibatlarini, balki sabablarini oldindan bartaraf etish bo‘yicha ta’sirchan amaliy choralarni ishlab chiqish va amalga oshirish kelajakda o‘z samarasini bermay qo‘ymaydi, bizdan keyingi avlodga halollik va adolatga asoslangan sog‘lom turmush-tarzini qoldirishimizga, yoshlar ongida yaxshi bilan yomonni, oq bilan qorani farqlay biladigan irodaviy kuchni hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi, sinov sifatida berilgan omonat umrni to‘g‘ri yashashlariga va natijada yaxshi kunlarni ko‘rishlariga muhim omil bo‘ladi. Har bir inson o‘zidan iz qoldirishni xoxlaydi, bizdan kelajak avlodga qoladigan yagona esdalik bu halollikka asoslangan yaxshiliklar bo‘lishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: “Adolat”, 2020
2. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risidagi” 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son farmoni
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni savarali amalga oshirish tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020 yil 6 oktyabrdagi PF-6079 sonli Farmoni
5. O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Soliq ma’muriyatchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-455-sonli qonuni, 2017 yil 18 dekabr
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 12 yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-81-son Qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 22 oktabrdagi “Normativhuquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5263-son Qarori.

8. “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29-iyundagi PF-6013-sonli Farmoni
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6257-son Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-5177-son Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 dekabrda “Sudyalarning chinakam mustaqilligini ta‘minlash hamda sud tizimida korrupsiyaning oldini olish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6127-son Farmoni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5729-son Farmoni.
14. Антикоррупционные реформы в Узбекистане 4-й раунд мониторинга в рамках Стамбульского плана действий по борьбе с коррупцией. [https://www.oecd.org/corruption/acn/OECD-ACN-Uzbekistan-4th\\_Round\\_Monitoring-Report-2019-RUS.pdf](https://www.oecd.org/corruption/acn/OECD-ACN-Uzbekistan-4th_Round_Monitoring-Report-2019-RUS.pdf)
15. Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 06.07.2021 yildagi PF-6257-son
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat soliqxizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 26-iyundagi PQ-3802-son qarori
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Soliq ma‘muriyatchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni 2017-yil 18-iyuldagi UP -5116-son. <http://lex.uz/docs/3271161>.
18. “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5468-son qarori <http://lex.uz/docs/3802374>
19. Bogdanov I.Ya., Kalinin A.P. Korrupsiya v Rossii: sotsialno- konomicheskiye aspekti. M., 2001; Houston D.A. Can Corruption Ever Improve an Economy // Cato Journal. 2007. Vol. 27. № 3
20. Bekmurodov A.Sh., Korrupsiyaga qarshi kurashish. Darslik. Toshkent: “Akademiya”, 2022. – 344 b.
21. Богданов И.Я., Калинин А.П. Коррупция в России: социальноэкономические аспекты. М., 2001; Houston D.A. Can Corruption Ever Improve an Economy // Cato Journal. 2007. Vol. 27. № 3
22. Nurmuxammedova, G. B. (2020). Korrupsiyaga qarshi kurashish usullari va mexanizmlarining nazariy-huquqiy tahlili. Jurisprudence, 1(1).

23. Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T: “Sharq”, 2009. - 448 b.
24. Bektemirov A., Taniyev A., Soliq va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. Samarqand.: "STEP-SEL" MChJ nashriyoti. 2023-256 bet.
25. Alimardonov M., To'xсанov Q. Soliq nazariyasi. –T.: “O'zbekiston Yozuvchilaru yushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti”, 2005. -175 b.
26. Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. –T.: “Fan va texnologiyalar markazi”, 2003. -247 b.
27. Sanaqulova B. Kichik tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash. Monografiya. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2014. -252 b.
28. Mahmudov N., Adizov S. Soliqlarning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini baholash: nazariya, amaliyot va modellashtirish. Monografiya. –T.: “Fan”, 2014. - 106 b.
29. Almardonov M. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. –T.: “Cho'lpon nomidagi NMIU”, 2013. -296 b.
30. Sobirov H. O'zbekiston davlat moliyasi tarixi. – T.: “Ta'lim manbai”, 2002
31. Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. -T.: Adliya. 2002
32. Shamsutdinov F., Shamsutdinova Sh. Chet mamlakatlar soliq tizimi. Darslik. –T.: “Fan va texnologiya”, 2011. –508 b.
33. Миляков Н.В. Налоги и налогообложение. Учебник. –М.: «ИНФРА-М», 2008. -520 с.
34. Malikov T., Xaydarov N. Budget (tizimi, tuzilmasi, jarayoni).
35. <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti
36. <http://www.mf.uz> – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti
37. <https://anticorruption.uz/> – O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining rasmiy veb-sayti.
38. <http://www.soliq.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi sayti
39. <http://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti